

**ERON TARIXIDA TURKIY SULOLALARNING SIYOSIY VA
DAVLATCHILIK TARAQQIYOTIDAGI O'RNI****Elliyeva Sadoqat Axmat qizi**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik

Universiteti 1-kurs magistranti

sadoqatelliyeva10@gmail.com

ORCID iD: 0009-0001-8863-5363

+998770339937

Annotatsiya

Eron tarixida turkiy sulolalar XI asrdan XX asr boshlariga qadar uzluksiz siyosiy hukmronlik qilgan bo'lib, mamlakat davlatchiligi, harbiy tizimi va siyosiy tuzilmasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu maqolada turkiylarning Eron hududiga kirib kelishi, siyosiy hokimiyatni egallash jarayoni hamda Saljuqiylardan Qojarlarga bo'lgan turkiy sulolalarning davlat boshqaruvidagi o'rni tarixiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy sulolalarning Eronni markazlashgan davlatga aylantirishdagi hissasi, harbiy-siyosiy ustunligi va fors-turkiy madaniy sintez jarayoni ochib beriladi. Maqolada Eron tarixida turkiy sulolalar hukmronligi mamlakatning siyosiy barqarorligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashda muhim omil bo'lganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Eron, turkiylar, Saljuqiylar, Safaviylar, Afshorlar, Qojarlar, turkmanlar, davlatchilik, siyosiy hokimiyat.

Annotation

From the eleventh century until the early twentieth century, Turkic dynasties played a decisive role in shaping Iran's political structure, military organization, and statehood traditions. This article examines the historical process through which Turkic groups entered Iran and gradually established political dominance. It analyzes the role of major Turkic dynasties—from the Seljuks to the Qajars—in consolidating centralized authority, maintaining territorial integrity, and shaping Iran's political institutions. The study argues that Turkic dynastic rule constituted a core element in the formation of Iran's historical state system.

Keywords: Iran, Turkic dynasties, Seljuks, Safavids, Afsharids, Qajars, statehood.

Аннотация

Тюркские династии с XI по начало XX века играли ключевую роль в политической истории Ирана. В статье рассматривается процесс прихода тюрков к власти, их вклад в формирование централизованного государства, военной системы и административного управления. Особое внимание уделяется

династиям Сельджуков, Сефевидов, Афшаров и Каджаров как основным носителям тюркской политической традиции в Иране.

Ключевые слова: Иран, турки, династии, государственность, политическая власть.

KIRISH

Eron tarixiy taraqqiyotida turkiy sulolalarning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. XI asrdan boshlab turkiy qabilalar Eron hududiga kirib kelib, qisqa vaqt ichida siyosiy hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'ldi. Turkiylar dastlab harbiy kuch sifatida maydonga chiqqan bo'lsalar-da, keyinchalik davlat boshqaruvi va siyosiy institutlarning shakllanishida yetakchi omilga aylandi. Ayniqsa, Saljuqiylar davridan boshlab Eron hududi uzoq vaqt davomida turkiy sulolalar tomonidan boshqarildi. Turkiy sulolalarning Eron tarixidagi ahamiyati faqatgina hukmronlik bilan cheklanmaydi. Ular Eronni markazlashgan davlatga aylantirish, harbiy tizimni mustahkamlash va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, turkiy hukmdorlar davrida turkiy va fors madaniyatlari o'zaro uyg'unlashib, Eronning o'ziga xos siyosiy-madaniy qiyofasini shakllantirdi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIK TAHLIL

Eronda turkiy sulolalar hukmronligi masalasi Sharq tarixshunosligida muhim mavzulardan biri hisoblanishiga qaramay, uzoq vaqt davomida bu jarayon asosan alohida sulolalar doirasida, fragmentar tarzda o'rganib kelingan. Saljuqiylar, Safaviylar yoki Qojarlar davlati haqidagi tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, turkiy sulolalarning Eron tarixidagi uzluksiz siyosiy hukmronligi va davlatchilik taraqqiyotiga ko'rsatgan umumiy ta'siri kompleks tarzda yetarli darajada yoritilmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar asosan fors, turk va g'arb tarixshunosligida yaratilgan bo'lib, ularda turkiy sulolalar ko'proq harbiy-siyosiy kuch sifatida talqin qilinadi. Jumladan, C.E. Bosworth G'aznaviylar va Saljuqiylarning siyosiy faoliyatini, A.C.S. Peacock Saljuqiylar imperiyasining davlat boshqaruvi tizimini, Roger Savory esa Safaviylar davrida turkiy qizilbosh qabilalarining siyosiy rolini batafsil yoritgan. Shuningdek, Michael Axworthy Nodirshoh Afshor shaxsiyati va uning harbiy islohotlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Abbas Amanat Qojarlar davrini Eronning an'anaviy turkiy-monarik tizimdan zamonaviy davlat shakliga o'tish bosqichi sifatida baholaydi.

Mazkur tadqiqotda tarixiy-xronologik, taqqoslama va strukturaviy tahlil metodlari qo'llanildi. Turkiy sulolalarning Eron hududida hokimiyatni egallash jarayoni faqat siyosiy voqelik sifatida emas, balki harbiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida turkiy etnosiyosiy ustunlik, harbiy elita hukmronligi va fors-byurokratik an'analar sintezi konsepsiyasi qabul qilindi.

MUHOKAMA

Eron tarixida turkiy sulolalarning roli beqiyos bo‘lib, mamlakat siyosiy, harbiy va madaniy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Turkiylar – kelib chiqishi Markaziy Osiyo va unga yaqin hududlardan bo‘lgan, turkiy tillarda so‘zlashuvchi qabilalardir. Ularning asosiy tarmoqlari O‘g‘uzlar, Qipchoqlar va Turkmanlar bo‘lib, tarix davomida ko‘plab sulolalar va hukmron oilalar shu qabilalardan tarqalgan. Bu qabilalar Markaziy Osiyo va Eron hududida ko‘chmanchilik, chorvachilik va jangovar hayot tarziga ega bo‘lib, o‘z harbiy va siyosiy tajribasi bilan mamlakatlarda hukmronlik o‘rnatishga muvaffaq bo‘lgan.¹

XI asrdan boshlab Eron hududida turkiy sulolalar siyosiy hokimiyatni egallash orqali mamlakatni markazlashgan davlat shakliga keltirishga, hududiy birlashuvni ta’minlashga va madaniy hayotni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Saljuqiylar davrida turkiylar Eronning markaziy va sharqiy hududlarida siyosiy birlikni mustahkamlab, ilm-fan va madaniyat markazlarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Keyinchalik Qora-Qoyunlular va Oq-Qoyunlular Eronning shimoliy va markaziy hududlarida hokimiyatni egallab, hududiy kengayish va siyosiy tartibni saqlashda muhim rol o‘ynagan. Safaviylar davrida turkiy elatlar davlatning harbiy va ma’muriy tizimida asosiy kuch sifatida ishlatilgan bo‘lsa, Afshorlar va Qojarlar sulolalari butun Eronni qisqa va uzoq muddatga markazlashgan davlat shaklida boshqarishga muvaffaq bo‘lgan. Shu tariqa, turkiy sulolalar Eronda nafaqat siyosiy hokimiyatni egallagan, balki mamlakatning siyosiy barqarorligi, madaniy merosi va xalqaro mavqei belgilashda ham asosiy omil bo‘lgan. Ularning kelib chiqishi va siyosiy faoliyati Eron tarixining shakllanishi, davlat tuzilmasi va turkiy hamda fors madaniy merosining uyg‘unlashishida muhim ahamiyat kasb etgan. Turkiy sulolalar Eron tarixini o‘rganishda nafaqat hukmronlik davrlarini, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ham chuqur tushunishga imkon beradi.²

Eron hududidagi birinchi turkiy sulola sifatida Saljuqiylar (Seljuks) ko‘riladi. Saljuqiylar O‘g‘uz turk qabilalaridan kelib chiqqan bo‘lib, XI asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida mustaqil qabila sifatida mavjud bo‘lgan. Ularning siyosiy markazi dastlab Eronning sharqiy va markaziy hududlariga taalluqli bo‘lgan bo‘lsa-da, tez orada butun mamlakatning siyosiy birlikni ta’minlashga muvaffaq bo‘lgan.

Sulola asoschisi Tog‘ril Beg 1037–1063 yillarda Eronning markaziy va sharqiy hududlarini birlashtirib, markazlashgan davlat tuzilmasini shakllantirdi. Saljuqiylar davrida Eron hududi bir nechta mahalliy hukmdorlar tomonidan boshqarilgan hududlardan markazlashgan davlatga aylandi. Mahalliy qabila rahbarlari va hukmdorlar Saljuqiylar hukmronligi ostida siyosiy mavqe saqlashga majbur bo‘ldi.

¹ 1. Bosworth C.E. The Ghaznavids. Edinburgh, 1963.S-56

² 3. Savory R. Iran under the Safavids. Cambridge, 1980.

Shu bilan birga, Saljuqiylar kuchli harbiy tizim yaratib, mamlakatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qildi. Saljuqiylar davri ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan ham ajralib turadi. Ular madrasalar, kutubxonalar va diniy markazlarni tashkil etib, Eron hududida turkiy va fors madaniyatining uyg'unlashishiga katta hissa qo'shgan. Shu tariqa, turkiy sulolalarning siyosiy tizimga integratsiyasi boshlangan va keyinchalik Safaviylar davrida davom etgan. Saljuqiylar va keyingi turkiy sulolalar Eron tarixida markazlashgan davlat tuzilishini shakllantirish, harbiy kuch va madaniy uyg'unlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynagan. Shu bois, Eron hududidagi turkiy sulolalar siyosiy hokimiyatni egallash bilan cheklanmay, mamlakatning madaniy merosi, ilm-fani va xalqaro mavqeini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Saljuqiylar davlatining zaiflashuvi va parchalanishidan so'ng Eron hududida siyosiy bo'shliq yuzaga keldi. Aynan shu sharoitda XIV–XV asrlarda Qora-Qoyunlular va Oq-Qoyunlular kabi turkiy sulolalar Eron tarixiy sahnasiga chiqdi. Bu sulolalar asosan turkman (o'g'uz) qabilalariga mansub bo'lib, Eronning shimoliy, g'arbiy va markaziy hududlarida hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'ldi.³

Qora-Qoyunlular XIV asr oxiri – XV asr o'rtalarida Eronning shimoli-g'arbiy hududlari, Ozarbayjon, Iroq va Kavkazning bir qismini boshqargan. Ular markazlashgan boshqaruvni to'liq shakllantira olmagan bo'lsalar-da, hududiy yaxlitlikni saqlash va savdo yo'llarini nazorat qilishda muhim rol o'ynagan. Qora-Qoyunlular davrida turkiy harbiy zodagonlar siyosiy hokimiyatning asosiy tayanchiga aylangan. Ularning asosiy raqibi bo'lgan Oq-Qoyunlular XV asrda Qora-Qoyunlularni mag'lub etib, Eron hududida kuchli siyosiy ta'sirga ega bo'ldi. Ayniqsa Uzun Hasan davrida Oq-Qoyunlular Eronni markazlashgan davlat sifatida boshqarishga harakat qilgan. U davlat boshqaruvi, soliq tizimi va harbiy tuzilmani isloh qilishga intilgan. Oq-Qoyunlular davri keyinchalik Safaviylar davlatining shakllanishi uchun muhim siyosiy va ijtimoiy zamin yaratdi.⁴

Eron tarixida turkiy sulolalar ichida Safaviylar (1501–1736) alohida o'rin tutadi. Safaviylar sulolasi kelib chiqishiga ko'ra turkiy (o'g'uz–turkman) bo'lib, ularning asosiy harbiy tayanchi qizilbosh turkiy qabilalari edi. Shoh Ismoil I 1501-yilda hokimiyatni qo'lga olib, Eronni yagona markazlashgan davlatga aylantirdi. Safaviylarning eng muhim tarixiy ahamiyati shundaki, ular shia mazhabini davlat dini sifatida e'lon qildi. Bu Eronning diniy, siyosiy va madaniy yo'nalishini tubdan o'zgartirdi. Davlat boshqaruvida turkiy amirlar, harbiy zodagonlar va qabila boshliqlari yetakchi rol o'ynagan. Saroy va harbiy muhitda turkiy til keng qo'llanilgan. Safaviylar davrida Eron hududiy jihatdan mustahkamlandi, markaziy hokimiyat kuchaydi va Eron

³ Peacock A.C.S. The Great Seljuk Empire. Edinburgh, 2015. S-98

⁴ Amanat A. Iran: A Modern History. Yale University Press, 2017. S-78

xalqaro siyosatda mustaqil o'yinchiga aylandi. Shu bois Safaviylar turkiy sulolalar ichida eng uzoq va barqaror hukmronlik qilgan sulola hisoblanadi.

Safaviylar zaiflashgach, XVIII asrda hokimiyat Afshorlar sulolasi qo'liga o'tdi. Bu sulolaning asoschisi Nodirshoh Afshor bo'lib, u turkman-afshor qabilasidan chiqqan. Afshorlar 1736–1747 yillarda Eronni boshqargan. Nodirshoh kuchli harbiy sarkarda bo'lib, Eron hududini qisqa vaqt ichida qayta birlashtirdi va hatto Hindistongacha yurish qilgan. Uning davrida Eron harbiy jihatdan nihoyatda kuchaygan bo'lsa-da, ichki siyosiy barqarorlik ta'minlanmagan. Nodirshoh vafotidan so'ng Afshorlar davlati tezda parchalanib ketdi. Shunga qaramay, Afshorlar davri turkiy harbiy an'analarning Eron siyosatidagi ustuvorligini yana bir bor namoyon etdi.

Qojarlar: Eronni boshqargan so'nggi turkiy sulola

Qojarlar sulolasi Eron tarixida turkiy kelib chiqishga ega bo'lgan so'nggi hukmron sulola sifatida alohida o'rin egallaydi. Qojarlar O'g'uz turklarining qajar qabilasidan kelib chiqqan bo'lib, Safaviylar davridan boshlab Eron siyosiy hayotida muhim harbiy kuch sifatida shakllangan. Ular dastlab Safaviylar davlatining tayanch harbiy kuchi bo'lgan qizilbosh qabilalari tarkibida faoliyat yuritgan va shimoliy Eron hududlarida joylashgan.

Qojarlar sulolasiga Og'a Muhammadxon Qojar⁵ asos solgan. U 1796-yilda Tehronda rasman shoh deb e'lon qilinib, Eron hududida markazlashgan monarxiyani tiklashga muvaffaq bo'ldi. Safaviylar va Afshorlar davridan keyingi siyosiy parokandalik sharoitida Qojarlar Eron hududiy yaxlitligini qisman tiklab, davlat boshqaruvida turkiy harbiy elitaning ustuvor rolini saqlab qoldi. Qojarlar hukmronligi 1796–1925-yillarni qamrab olib, qariyb bir yarim asr davom etdi. Qojarlar davrida Eron siyosiy tizimi an'anaviy turkiy-monarkik boshqaruv modeli asosida faoliyat yuritgan. Shoh oliy hokimiyat egasi bo'lib, davlat boshqaruvida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar va fors byurokratik elita muhim rol o'ynagan. Bu davrda turkiy sulola siyosiy hukmronlikni saqlab qolgan bo'lsa-da, boshqaruv apparatida fors tilining ustunligi va fors ma'muriy an'analari saqlanib qolgan.

XIX asr Qojarlar davri Eron uchun murakkab siyosiy va geosiyosiy sharoit bilan xarakterlanadi. Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining bosimi ostida Eron tashqi siyosiy mustaqilligini tobora yo'qota bordi. 1813-yilgi Guliston va 1828-yilgi Turkmanchoy shartnomalari natijasida Eron Kavkaz hududlaridan ayrildi. Bu jarayon Qojarlar hukmronligining zaiflashishiga va markaziy hokimiyat nufuzining pasayishiga olib keldi.⁶

⁵ Hambly, Gavin R. G. "Aga Muhammad Khan and the Establishment of the Qajar Dynasty." In *The Cambridge History of Iran*, Vol. 7, Cambridge: Cambridge University Press, 1991. S-122

⁶ Hambly, Gavin R. G. "Aga Muhammad Khan and the Establishment of the Qajar Dynasty." In *The Cambridge History of Iran*, Vol. 7, Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

Shu bilan birga, Qojarlar davri Eron tarixida zamonaviylashuvning dastlabki bosqichi sifatida ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nosiriddinshoh Qojar (1848–1896) hukmronligi davrida Yevropa tajribasiga asoslangan harbiy, ma'muriy va ta'lim sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Matbaa, zamonaviy maktablar, diplomatik aloqalar va yangi boshqaruv institutlari joriy etildi. Biroq bu islohotlar cheklangan bo'lib, chuqur tizimli o'zgarishlar darajasiga yetmadi. Qojarlar hukmronligining so'nggi davrida ichki ijtimoiy norozilik kuchaydi. 1905–1911-yillardagi Konstitutsiyaviy inqilob natijasida Eron tarixida birinchi parlament – Majlis tashkil etildi va shoh hokimiyati cheklana boshladi. Bu jarayon an'anaviy turkiy monarxiya modelining inqirozga yuz tutganini ko'rsatdi. 1925-yilda Ahmadshoh Qojar taxtdan chetlatilib, Pahlaviylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. Shu tariqa, Eronda bir necha asr davom etgan turkiy sulolalar hukmronligi yakunlandi. Shunga qaramay, Qojarlar sulolasi Eron tarixida turkiy siyosiy hukmronlikning so'nggi bosqichi sifatida, mamlakatni an'anaviy davlat tuzilmasidan zamonaviy siyosiy tizimga o'tish davrida boshqargan muhim tarixiy kuch bo'lib qoladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Eron tarixiy taraqqiyotida turkiy sulolalar siyosiy hokimiyatning asosiy tashuvchilari sifatida namoyon bo'lib, mamlakat davlatchiligi, harbiy qudrati va siyosiy boshqaruv tizimining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. G'aznaviylar va Saljuqiylardan boshlab Safaviylar, Afshorlar va Qojarlarga bo'lgan uzoq tarixiy davr Eron hududida turkiy siyosiy elitaning uzluksiz ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon tasodifiy hodisa emas, balki turkiylarning harbiy tashkilotchiligi, siyosiy moslashuvchanligi va mahalliy boshqaruv an'analari bilan uyg'unlashish qobiliyati natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Turkiy sulolalar Eronni faqat harbiy kuch yordamida boshqarmagan, balki fors byurokratik an'analari, diniy institutlar va mahalliy elitalar bilan muvozanatli siyosat olib borgan. Ayniqsa, Safaviylar davrida shia mazhabining davlat dini sifatida joriy etilishi Eron siyosiy birligini mustahkamlab, turkiy hukmronlikka ideologik asos yaratdi. Qojarlar davrida esa turkiy monarxiya Eron tarixida an'anaviy davlat tuzilmasidan konstitutsiyaviy va zamonaviy siyosiy tizimga o'tish jarayonida muhim o'tish bosqichini tashkil etdi.

1925-yilda turkiy sulolalar hukmronligining yakunlanishiga qaramay, ularning siyosiy, harbiy va madaniy merosi Eron davlatchiligining keyingi rivojiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan davlat modeli, harbiy elita hukmronligi va siyosiy legitimatsiya tamoyillari turkiy sulolalar davrida shakllanib, zamonaviy Eron siyosiy tizimining tarixiy asoslarini tashkil etdi. Shu bois, bugungi Eron davlatchiligini to'liq anglash turkiy sulolalar merosini chuqur ilmiy tahlil etmasdan mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bosworth C.E. The Ghaznavids. Edinburgh, 1963.

2. Peacock A.C.S. The Great Seljuk Empire. Edinburgh, 2015.
3. Savory R. Iran under the Safavids. Cambridge, 1980.
4. Axworthy M. The Sword of Persia: Nader Shah. London, 2006.
5. Amanat A. Iran: A Modern History. Yale University Press, 2017.
6. Hambly, Gavin R. G. “Aga Muhammad Khan and the Establishment of the Qajar Dynasty.” In The Cambridge History of Iran, Vol. 7, Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

